

# SURXON VOHASINING SIRLI ICHIMLIGI: HAOMA TRANSFORMATSIYASI



**Rasulova Sevara  
Chariyevna,**  
tayanch doktorant

## **Annotatsiya.**

*Mazkur maqolada Surxon vohasining bronza davri Sopolli madaniyati xalqlari diniy – mafkuraviy hayotida haoma marosimining paydo bo‘lishi, uning oddiy ritualdan ijtimoiy - siyosiy ahamiyatdagi kult darajasiga ko‘tarilishi arxeologik moddiy manbalar misolida tahlil qilindi. Shuningdek, zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesta” asosida Surxon vohasining diniy qarashlardagi transformatsiyon jarayonlar batafsil yoritilgan.*

## **Kalit so‘zlar.**

*Surxon vohasi, Sopolli madaniyati, Jarqo‘ton ibodatxonasi, Avesta, haoma kulti.*



### Аннотация.

*Мазкур мақоллада Сурхон воҳасининг бронза даври Сополли маданияти халқлари диний – мафкурaviy ҳayotida хаома маросимининг paydo bo‘lishi, uning oddiy ritualdan ijtimoiy - siyosiy ahamiyatdagi kult darajasiga ko‘tarilishi arxeologik moddiy manbalar misolida tahlil qilindi. Shuningdek, zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesta” asosida Sурхон vo- hasining dинiy qarashlardagi transformatsiyon jarayonlar batafsil yoritilgan.*

### Калит со‘злар.

*Сурхон воҳаси, Сополли маданияти, Jarqo‘ton ibodatxonasi, Avesta, хаома култи.*

## ЗАГАДОЧНЫЙ НАПИТОК СУРХАНСКОГО ОАЗИСА: ТРАНСФОРМАЦИЯ ХАОМЫ

### Аннотация.

*В данной статье на примере археологических материалов анализируется возникновение ритуала хаомы в религиозно-идеологической жизни народов Сапаллинской культуры Сурханского оазиса в бронзовом веке, а также его возвышение от простого ритуала до уровня культа общественно-политического значения. Кроме того, на основе священной книги зороастризма “Авеста” подробно освещаются трансформационные процессы в религиозных воззрениях Сурханского оазиса.*

### Ключевые слова:

*Сурханский оазис, Сапаллинская культура, храм Джаркутан, “Авеста”, культ хаомы.*



# THE MYSTERIOUS DRINK OF THE SURKHON OASIS: THE TRANSFORMATION OF HAOMA

## Annotation.

*This article analyzes the emergence of the haoma ceremony in the religious and ideological life of the peoples of the Bronze Age Sapalli culture in the Surkhan oasis. Based on archaeological material sources, it examines the ceremony's elevation from a simple ritual to a cult of socio-political significance. Furthermore, the transformational processes in the religious views of the Surkhan oasis are detailed, drawing upon the "Avesta" the sacred book of Zoroastrianism.*

## Keywords:

*Surkhan oasis, Sapalli culture, Jarkutan temple, "Avesta", haoma cult.*

## Kirish.

Surxon vohasi bronza davri mifologiyasida Avesto va moddiy madaniyat<sup>1</sup>, marosimlar, urf-odatlar<sup>2</sup>, xudolarga sha'niga aytilgan alqovlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bronza davri mifologiyasi "Avesta" ning Yasht va Yasna nasklarisiz tasavvur etish qiyin, chunki aynan shu qismlar Surxon vohasi bronza davri kishilarining diniy - mafkuraviy qarashlarini ochib berishga xizmat qiladi. Haoma haqida ma'lumotlar asosan, Yasnada, shuningdek Visparad va Vendidad qismlarga ham uchraydi<sup>3</sup>. Jumladan, haoma Yasnadagi bajarilishi zarur bo'lgan yetti marosimdir, ya'ni sut, o'simlik yaprog'ini ezish orqali siqilgan sharbatni ichgan insonlarga ilohiy kuch - qudrat bag'ishlaydi. Bundan tashqari, haoma zardushtiylik falsafasiga ko'ra, olov – suv, yer – osmon kabi "tabiat xudolari" qatorida turib, uning sharafiga so'yilgan ho'kizning tili, chap jag' suyagi zardusht mobadlariga in'om etilgan. Zardushtiylik psixologiyasiga ko'ra, ibodat yeri - muqaddas tuproq, poklanish uchun o'simlik va hayvonlar, (suti va yog'i), idishlarda suv va muqaddas

olov barchasi o'zaro hamohanglikda mobadlar dunyoda faqat ezgulik va yorug'lik hukmronligi uchun xudolar bilan hamkorlik qiladi, degan qarash yotadi<sup>4</sup>, yoki hayvon suti va yog'idan altarlardagi olovni yorqinroq yoqish maqsadida ham olovga tomizilgan.

## Adabiyotlar tahlili.

Mazkur tadqiqotda adabiyotlar tahlili zardushtiylik dinining axloqiy-falsafiy kitobi "Avesta" ning rus, ingliz, o'zbek tillardagi tarjimalari, izohli atamaları, lug'atlar hamda Oks sivilizatsiyasi yodgorliklarida olib borilgan arxeologik qazuv ishlari natijalari, hisobotlari, O'zbekiston moddiy madaniyat tarixi nomli jurnalning mazkur tadqiqotga tegishli maqolalari, monografiyalar tashkil etadi.

## Tadqiqot metodologiyasi.

Makur maqolada tarixiy-tahlil, tarixiy-qiyosiy, haq-qoniy-xolisonlaik, xronologik ketma-ketlik metodlaridan samarali foydalanilgan.

## Tahlil va natijalar.

Akademik A. A. Asqarov Surxon vohasi bronza davri mifologiyasi, urf-odatları, marosimlari zaratushtra davri madaniyatini shakllanishi va rivojlanishi uchun kuchli omil bo'lib xizmat qilgan, degan g'oyani ilgari suradi<sup>5</sup>. Asosiy e'tibor haoma kultining arxeologik moddiy manbalarda tasniflashiga qaratiladi. Nafaqat Surxon vohasi, qolaversa butun O'rta Osiyoda o'zining monumentalligi va me'moriy tuzilishi bilan yagona bo'lgan Jarqo'ton "olov" ibodatxonasi (mil. avv. II mingyillik) ning 4 - xonasida haoma ichimligini tayyorlaydigan maxsus "oq xona" ning topilishi, shuningdek, o'simlikni ezib, sharbatini siqib olishda foydalanilgan maxsus tosh hovonchalar, sharbatni sizib olishda ishlatilgan maxsus sopol suzgichlar, tayyor bo'lgan haoma sharbatini saqlash va marosim davomida ulashish maqsadida yasalgan sopol ko'zachalar haoma kultining Surxon vohasi xalqlari hayotida asosiy kultik diniy qarash ekanligini dalillaydi<sup>6</sup>. (1-rasm).

1980 - yilning kuz faslida arxeolog X. I. Duke tomonidan akademik A. A. Asqarov rahbarligidagi Sherobod arxeologik guruhining ekspeditsiyasi Jarqo'ton yodgorligining 30 - xonasining ustki qatlamidan mil. avv. XI - X asrlarga oid bo'lgan silindr muhr topildi. Ushbu muhr ohaktoshdan ishlangan bo'lib, bo'yi 3 sm, diametri esa 1 sm o'lchamga egadir. Bilimdon M. Meytarchyaning fikricha, Jarqo'tonda yodgorligidan topilgan echki tasviri "o'roq ifodasidagi oy", atrofida daraxt esa "hayot daraxti" degan ilmiy xulosani beradi. Amuletta simmetrik tarzda bir - biriga qaragan daraxtning ikki tomonida turgan tog' echkisi tasvirlangan. Shuningdek, o'simlikning dum-

1 Шайдуллаев Ш.Б. «Авеста» ва моддий маданият // O'zbekiston tarixi. – Toshkent. – 2004. № 3.


2 Хомидов Х. «Авесто» файзлари / Илмий мухаррир: Н. Комилов. — Т.: Л. Кодирий помидаги халк мероси нашр., 2001. - 96 б.

3 Войсе М. Хаома ii. The rituals. Vol. Xi, Fasc. December 15, 2003. - P. 662-667.

4 Войсе М. Zoroastrians their religious beliefs and practices. London, Boston and Henley. 1979. - P. 5.

5 Асқаров А.А. Ширинов Т.Ш. О некоторых группах культовой керамики Джаркутана // ИМКУ. Издательство "Фан". Узбекской ССР. - Ташкент. 1991. – Вып. 25. - С. 33-56.

6 Асқаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд, 1993. – С. 98.



I-rasm. a) Jarqo'ton ibodatxonasi rekonstruksiyasi.

aloq shaklidagi ifodasi - quyoshga taqqoslanadi. Umumiy xulosa qilganda, bilimdon M. Meytarchyan oy – quyosh – tabiat - hayvonot olamining uzviy bog'liqlikda ifodalashga harakat qilgan<sup>7</sup>. Aslida esa, slindr muhr gadishidagi echki – o'simlik tasviri haoma kultining moddiy madaniyatdagi ifodasidir. Quyosh tasviri esa, Surxon vohasida diniy – mafkuraviy qarashlarida muqaddas hisoblangan olovning ko'kdagi ramzidir. (2-rasm). Xususan, Surxon vohasidagi Sopolli madaniyatining Bo'ston VI qabristonida ham olovning ahamiyati bilan, sut, yog', o'simlik sharbati dafn marosimining tarkibiy qismi hisoblangan<sup>8</sup>. Haomani tayyorlashda foydalanilgan o'simlik fanda ko'knori, arpa, tariq degan ilmiy xulosalar ham yo'q emas. Mazkur o'simlikning moddiy ifodasi esa, Surxon vohasining Uzun tumani Jonchekka qishlog'idan topilgan bulladagi o'simlikni ko'knoridoshlar oilasiga mansub ko'knori deb ta'riflangan<sup>9</sup>.

“Avesta”ning Yasna naskining 9 - bandida haoma sha'niga aytilgan alqov ham “Hom Yasht” nomi bilan

Yashtlar qatoridan o'rin olgan. Avestoshunos M. Isoqovni Steblin - Kamenskiyning rus tilidagi tarjimasida asosida “Avesta” ning o'zbek tilidagi nusxasida haoma haqida Yasht naskining Ardvi Sura alqovi Obon Yasht (5 - Yasht) qismining 8- bandida:

...Haoma-yu sut bilan  
Yo'qlar meni kim bugun  
Sidqi vafosi uchun.

9-bandida:

...Qo'lda tutib barsiman,  
Sutli haoma ehson  
Aylasin ixlos qilib<sup>10</sup>.

Steblyin - Kamenskiyning “Avesta” kitobining Vide-dat naskida haomaning sutli ichimlik ekanligiga ishora

7 Мейтарчян М. Амулет эпохи бронзы с поселения Джаркутан // ИМКУ. Узбекистана. Издательство “Фан”. Узбекской ССР. - Ташкент. 1984. - Вып. 19. - С. 41-45.

8 Аванесова Н.А. Погребальный обряд некрополя Бустон VI как отражение межкультурных взаимодействий // Cultural transfers in Central Asia: before, during and after the Silk Road. Paris - Samarkand. IICAS, 2013. - С. 27-34.

9 Икромов Н.М. Кавийлар сулоласи хақидаги хабарлар: тарихий жараён ва археологик манбалар. Жаҳон цивилизациясида

Икромов Н.М. Файзиев А.А. Кави и их роль в государственности в древней бактрии в период формирования. Археология Евразийских степей. № 2 2025. - С. 84-91.

10 Стеблыин – Каменский. Авеста. Москва. 1993. - С. 203.



2-rasm. Jarqo'ton slindr muhr gardishidagi tasvir. (Мейтарчян, 1984. С. 41-45).

etib. Haomaning ijobiy tavsifi - haoma – hushyorlik, tiyraklik bag'ishlaydigan muqaddas ichimlik bo'lib, efedra o'simligidan ham tayyorlangan. Hushyor turib, chuqur idrok va hissiyot bilan ibodat qilish muhim sanalgan. Chunki zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, "iroda erkinligi" ruhiy olamining kulminatsion nuqtasi hisoblanadi<sup>1</sup>. O'zbek va rus tillaridagi tarjimalarga haoma Yasht qismi mavjud bo'lib<sup>2</sup>, klassik tarjimonlarning yozma manbalarida haoma Yashtga duch kelinmaydi, chunki Yasht nasklarining asosiy talabi bo'lgan "karde" lar (o'Ichov birligi hisoblanadi) ga mos bo'lmaganligi sababli, Yasnanning tarkibiy qismiga qoldirishni afzal ko'rganlar<sup>3</sup>.

Avestoshunos T. Karimda esa hushyorlik inkor etilib, haomani ichganda jon tanani vaqtinchalik tark etadi degan ta'rif ham beriladi<sup>4</sup>. Uni asrash, jamoatga yetarli miqdorda

yig'ib, ko'paytirish uchun katta sopol idishlar ishlatilgan, uning xum deb atalishi avestocha «haomadir»<sup>5</sup>. Haomaning salbiy tavsifi haqida ya'ni hukmron elita qatlam – kaviy, zardushtiylik dinidan bo'lmagan kohinlarlar – karpanlarni<sup>6</sup> asosiy quroli sifatida qo'llaniladigan salbiy obrazi ham yo'q emas. (Yasna. 48.10)<sup>7</sup> Ba'zi manbalarda payg'ambar Zaratushtra tomonidan ham haoma ichimligiga salbiy munosabat bildirilgan<sup>8</sup>. Ammo keyinchalik Zardusht xalqlarning birlashtirish hamda ortidan ergashtirish zarurati tug'ilganda haomani o'z diniga muqaddas etib qo'shishga majbur bo'ladi<sup>9</sup>. Olimlar bunga "zardushtiylik dinidan oldingi marosimlarning qayta tiklanishi" sifatida baho beradilar<sup>10</sup>. Zardushtiylik ta'limoti ham davrlar o'tib islohotlar natijasida transformatsiyaga uchrab kultik mazmuni o'zgarib borgan<sup>11</sup>.

1 Cha

Indo-Iranian Studies  
5.2.1929. 403–407.

2 Авеста: «Видевдот» китоби (М.Исҳоқов таржимаси). - Т.: ТошДШИ нашриёти, 2007. - 100 б.; Авесто. Тарихий - адабий ёдго  
перевод  
русски

3 Ve

1898.) Avesta – the sacred books of Zoroastrianism, Book 3, Edited by Joseph H. Peterson. 1995. - P. 180.

4 Karim T. Muqaddas Avesto izidan.// ilmiy – badiiy qissa. Toshkent. Cho'lpon. 2000. - B. 112.

5 Исҳоқов. М. Авесто. Яшт китоби. Тошкент. 2001. - B. 126.

6 Gha

Studies. 2014. - P. 24.; Peterson. J. H. Avesta the sacred books of the Zoroastrians. Part I. Yasna. 2021. - P. 57.

7 Peterson J. H. Avesta the sacred books of the Zoroastrians. Part I. Yasna.2021. - P. 77.

8 Олмстед А. Т. История Персидской империи / Пер. с англ. А.А. Карповой. М.: ЗАО Центрполиграф, 2012. - С. 127.

9 Сарияниди В.И. Зороастрийская проблема в свете новейших археологических открытий // ВДИ. Москва. Наука. 1989. 2 (189). - С. 178-181.

10 Sarianidi V. Margiana and protozoroastrism. Translated from Russian by Inna Sarianidi. Athens: Kapon Publ., 1998. - P. 171.

11 M

Xususan, Yasht naskining XVIII qism 57 - bandida haomaning ibodat qiluvchilar uchun ahamiyati, g'alaba, kuch-qudrat timsoli ayniqsa devlarga<sup>12</sup> qarshi kurashda ilohiy kuch ato etish xususiyatlari sifatida quyidagicha yoritiladi:

Ahura yaratganga, yengishning qo'riqchisi  
Haomaga bosh urib, kelarman yolvorish – la  
Tan – u jonu boyliklarim, homiysi, soqchisiga,  
Ta'tib kursa uni kim, uni yengomas g'anim.

Ushbu alqovlar orqali haoma uch xil ma'noni kasb etadi: haoma — ma'bud; haoma — o'simlik; haoma — echki sut qo'shib tayyorlanadigan ichimlik<sup>13</sup>. Haoma — bu o'rinda faqat ichimlik emas, balki shu nomdagi ichimlikni tayyorlashda xom - ashyo bo'luvchi buta, ignabargli o'simlik hamdir. Albatta bu o'simlik kishilarning ruhiy olamiga kuchli ta'sir qiluvchi efedrdir<sup>14</sup>. Ammo fanda bu o'simlik turi isiriq, anor degan g'oyalar ham yo'q emas<sup>15</sup>.

“Avesta”ning Yasht naskida haoma yosh baquvvat, oltin ko'zli o'spirin sifatida gavdalanirib, Zaratushtra (Spitama) bilan o'zaro suhbat jarayoni yoritiladi. Haomaning terib, ezib, sharbatini siqib barkamollikka erishgan masihlardan birinchi – Vivaxvant (o'g'li Yima), ikkinchi – Atviya (o'g'li Trataeona - Faridun) uchinchi – Trita ((o'g'illari Urvaxshaya, Krishaspa), to'rtinchi – Purushaspa (o'g'li Zaratushtra) bo'lib, har bir payg'ambarlarga haomani siqib sharbatini olganlari uchun savob ishlar ato etilgan ya'ni osushyant (masih) lar darajasidagi o'g'il farzandlar ato etilgan<sup>16</sup>. “Kichik Avesta” ning Yasht naskining bir necha izohli tarjimalarida ham haoma kulti asosan ot kabi kuch-g'ayratga to'la kabi tasvirlanib, uni ichgan kishilar yetuk farzandlar ko'rishi bilan izohlanadi<sup>17</sup>.

Aslida haoma/soma so'zi etimologik jihatdan sanskritda “psu” o'zagidan olingan bo'lib, “siqib olingan sharbat” ma'nosini anglatadi, “Veda” larga kelgan soma so'zi esa “amrta” “o'lmaydigan” yoki “abadiy hayot baxsh etuvchi” ma'nolariga keladi<sup>18</sup>. Ammo Avestaning Videvdat naskining 12 - fragardida haoma kultining yana bir – poklanish vazifasi tilga olinadi: “Ey, dunyoni yaratgan parvardigor, ey, Haq! (Murda yotgan xonani (nas devi ta'siridan) qanday poklash mumkin)?”

Ahura Mazda dedi: “Uch marta tan g'usul qilingach, kiyimlar uch marta yuviladi. Uch marta (muqaddas) goxlar kuylanadi. Mening altar - olovimga ehsonlar bag'ishlanadi.

Barsman tutamlarini qo'lda tutib, haoma ho'planadi.

3-fragardda esa “...oqliq sut ko'targan, haomani yanchish uchun tosh xavoncha ko'targan imonli kishini tutgan yer baxtiyordir” yoki haomaning muqaddasligiga ishora etib: ...haomani tuyish uchun shay qilib qo'yilgan uyda it yoki odam vafot etsa, darxol, haoma va havonchani uydan olib chiqish kerak yoki jasad haomaga tegib ketsa, agar haoma ehson uchun tayyorlangan bo'lsa u halol, agar ehson uchun tayyorlanmagan bo'lsa, uning to'rt enlik miqdori harom buladi, uni tozalash uchun uy o'rtasida qo'yib, bir yil o'tgach yana uni siqib sharbatini ichish haloldir<sup>19</sup>.

## Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlanadiki, haoma kulti Surxon vohasida zardushtiylik ta'limotigacha bo'lgan davrda ham asosiy diniy marosimlardan biri bo'lib xizmat qilgan. Bronza davrining so'ngida kelib ilk zardushtiylik kurtaklari tarqala boshlagan davrda haoma kultiga nisbatan salbiy tavsif berilgan bo'lsa, ijtimoiy – siyosiy hayotning barqarorlashtirish zarurati va dinning markazlashuvi natijasida haoma kultiga nisbatan ijobiy qarashlar yana qayta jonlanadi. Yuqoridagilardan xulosa sifatida haoma kulti transformatsiyasi uch bosqichda namoyon bo'ladi: ilk bosqich – har bir xonadon miqyosida o'choqlar atrofida kichik oilaviy marosimlar sifatida ado etilgan bo'lsa, rivojlangan bosqichda esa, haoma kulti mahobatli ibodatxonalarining “oq xona” larida, maxsus altarlar atrofida ado etilgan. So'ngi bosqichda esa, haoma kulti ijtimoiy - siyosiy darajada ko'tarilib, aholining ijtimoiy tarkibiga yangi bir qatlam (karpan-mobad) larning ajralib chiqishi bilan xarakterlanadi. Yuqoridagi moddiy manbalar tahlili Surxon vohasi kishilik tarixining ilk tamadduni sifatida zardushtiylik dinining shakllanishi va rivojida o'z o'rni va rolini yana bir bor e'tirof etadi.

12 Абдуллоев Ш. Б. Ўрта осие халқлари диний қарашларида дев образи: шаклланиши ва эволюцияси. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Термиз. 2022. - В. 27.

13 Чунакова. О. М. Пехлевийский словарь. Зороастрийских терминов, мифических символов. Москва. РАН. 2004. - С. 242.

14 Рак. И. В. Авеста в русских переводах. (1861-1896). Нева. РХГИ. 1997. - С. 146.

15 Аширов А. Авестодан мерос маросимлар. Т.: Абдулла Кодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001. - Б. 9.

16 Исхоков М. Авесто: Яшт китоби. Т.: «Шарк», 2001. - Б. 125.

17 Furdoonji Kanga E. M. Khordeh Avesta. Jenaz Printers, Bombay. 2013. - P. 25.

18 Clark M. Soma and Haoma: Ayahuasca analogues from the Late Bronze Age. Journal of Psychedelic Studies. March 14, 2019. - P.13.

19 Is'hoqov M.M. Avesta. Videvdat kitobi. Toshkent. 2017. - С. 77